

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Rektor Sh. Sirojiddinov

2019_yil “1” 07



“KEDISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2019_yil “4” 10

Ro‘yxatga olindi: №BD-5111200-2.05

№BD-5112400-2.03

2019_yil “7” 08

MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O‘QISH

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha

Ta‘lim sohasi: 110 000 – Pedagogika

Ta‘lim yo‘nalishlari: 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

5112400 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili

Toshkent – 2019

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil 17.08 dagi "4" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4.10 dagi 892 - sonli buyrug'ining 2 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

H.Jo'rayeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M. Sulaymonov – Namangan davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Q.Qahramonov – O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, filologiya fanlari doktori

U.Qo'ziyev – Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

K.Abdullayev – Namangan davlat universiteti qoshidagi akademik litsey direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil - 9.07 dagi 14 -sonli bayonnomasi).

k/m *[Handwritten signatures]*

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish” fani mutolaa madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o'zlashtirish, millat hayotida kechgan ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma'naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunish, mutolaa jarayonida ifodali o'qish vositalaridan to'g'ri foydalanish, aruz va barmoq vazni xususiyatlarini farqlash, lirik, epik va dramatik turlarning o'qish yo'llarilari hamda usullarini o'rganish masalalarini qamrab oladi. Fan badiiy asar mohiyatini tushunish, tahlil qilish, yozuvchi yoki shoir g'oyaviy-badiiy niyatini ilg'ash, mumtoz asarlar matni ustida ishlash hamda ularni sharhlab o'qishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

Ushbu fanni o'qitish orqali o'zbek tili va adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti, badiiy matn tahlili aspektida tushunadigan, og'zaki va yozma nutqi ravon, aruz vaznidagi she'rlarni, badiiy matnni ifodali o'qiy oladigan, nutq madaniyati ko'nikmalarini egallagan yuksak malakali pedagog kadrlar tayyorlash ko'zda tutiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

“Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish” fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga mutolaa madaniyati va ifodali o'qish san'atining chambarchas bog'liqligini tushuntirish, mutolaa jarayonida ifodali o'qish vositalaridan to'g'ri foydalanish, aruz va barmoq vazni xususiyatlarini farqlash, mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda amaliyotda qo'llay olishni o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talablarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda mutolaa, qiroatxonlik malakasini shakllantirish vazifasini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va nalakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

– Mutolaa madaniyati talablarini o'zlashtirish, mutolaa jarayonida ifodali o'qish vositalaridan to'g'ri foydalanish, so'z san'atkorlarining ifodali nutq va notiqlik haqidagi fikrl-qarashlarini o'rganish kabi *tasavvurga ega bo'lishi*; (bilim)

– Mumtoz asarlar matni ustida ishlash, tahlil qilish, aruz va barmoq vazni xususiyatlarini farqlash va nutq madaniyati talablariga amal qilishni **bilishi va ulardan foydalana olishi**; (*ko'nikma*)

– Lirik, epik, dramatik turlarga xos o'qilish usullari, matn ustida ishlash yo'llari, nutqni ta'sirchan, auditoriya e'tiborini tortadigan darajada obrazli tarzda ifoda etish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

III. Asosiy amaliy qism. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1-modul. Mutolaa madaniyati

Amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar mutolaa madaniyatini shakllantirishi, badiiy asarlarni ifodali o'qish, tahlil qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishi, erishilgan natijalarni kelgusi faoliyatlarida qo'llay olishi nazarda tutiladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda mumtoz va zamonaviy, asosan, lirik, epik, dramatik asarlardan parchalar o'qish va yodlash, asar matni ustida ishlash usullaridan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha quyidagi mavzular tavsiiya etiladi:

1. Mutolaa madaniyati: genezisi va tarixiy omillari. Qadim folklor manbalari – epos, xalq qissa va hikoyalari, ertaklar va qo'shiqlarda notiqlik va nutq masalasi.
2. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus asarlarida notiqlik nazariyasi talqini.
3. Platon va Suqrot asarlarida notiqlik masalasi talqini. Aristotelning “Poetika” va “Ritorika” asarlari.
4. Husayn Voiz Koshifiy – notiq va axloq targ'ibotchisi.
5. “Majolis un-nafois” tazkirasidagi Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy haqida ma'lumotlar.
6. Mumtoz asarlarda voizlik san'atining ulug'lanishi. “Devoni lug'otit turk”, “Qutadg'u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” asarida so'z ta'rifi, ilm-ma'rifat targ'ibi.
7. Aruz vaznidagi lirik asarlarni ifodali o'qish. Alisher Navoiyning “Zihi husnug zuhuridin...”, “Shifoi vasl qadrin...” deb boshlanuvchi g'azallarini vaznga solib o'qish.
8. Bobur va Husayniy g'azaliyoti vazn xususiyatlari, mavzu ko'lami.
9. “Muhabbatnoma” asaridagi turkona g'azallar tahlili va mutolaasi.
10. Pahlavon Mahmud va Umar Xayyom ruboiylari mutolaasi.
11. Mumtoz asarlar matni ustida ishlash usullari. “Hayrat ul-abror” dostoni misolida.
12. “Farhod va Shirin” dostonidagi qahramon nutqi va dialoglar ustida ishlash.
13. Jomiy “Bahoriston” asari mutolaasi va matni ustida ishlash.
14. Gulxaniy “Zarbulmasal” asaridagi masallarning o'qilish talablari .
15. Kichik janrlar mutolaasida nomuvofiqlik masalasi. Ruboiy va tuyuq janri misolida.
16. Barmoq va sarbast she'rlarni ifodali o'qish muammolari.
17. Yapon shhe'riyatidagi xayku va tankalarni mutolaa qilish.
18. Lirik janrlarda ohang va musiqiylik. Hamid Olimjonning “Oyguil bilan Baxtiyor” ertak-dostonidagi xalqona ritm.

19. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini mutolaa qilishda ritmning o’rni.
20. Mirtemirning lirik she’rlarida poetik ohangdorlik.
21. Abdulla Oripov she’riyatida estetik ta’sir masalasi.
22. Asliyati va tarjima qiyosi. Rus adibi Sergey Mixalkovning “Хрустальная ваза” she’ri misolida.
23. Dramatik asarlarda ritm va ohang. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug’bek” dramasi o’qish.
24. Shekspirning “Otello” dramasi ovozni sozlash, opera nutqiga amal qilish.
25. Epik asarlarda nutq va mutolaa masalasi. O’tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” asari qahramonlari nutqi ustida ishlash.
26. Mutolaa jarayonida jumla, so’z va nutqning vazifasi. Abdulla Qahhor hikoyalari misolida.
27. Lev Tolstoy hikoyalari parchalar o’qish va tahlil qilish.
28. Mutolaa va ifodali o’qish san’atining teatr va kino san’ati bilan bog’liqligi. Xudoyberdi To’xtaboyev “Sehrli qalpoqcha” hamda Ulug’bek Hamdamning “Muvozanat” asari misolida.
29. Urg’u va pauzaning ifodali o’qishdagi ahamiyati. Erkin Vohidovning “Inson” qasidasi misolida.
30. Intonatsiya va ohangga notiq tashqi ko’rinishining mosligi. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni misolida.
31. Ifodali o’qishda ijroning ahamiyati. Muhammad Yusuf she’riyatida qo’shiqchilik an’analar.
32. O’zbek she’riyatida barmoq va aruz vazni imkoniyatlari. Xurshid Davron va Sirojiddin Sayyid ijodi misolida.
33. Sonet janri mutolaasida ifodali o’qish vositalaridan to’g’ri foydalanish. Rauf Parfning “U dunyoga, onamga maktub” turkumidagi sonetlari misolida.
34. Faxriyorning “Sensizlik” turkumiga kirgan sonetlarini ifodali o’qish.
35. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida nutq shakllari.
36. Tog’ay Murod qissalarida ritmning o’ziga xosligi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular:

1. Roviylilik san’ati haqida tushuncha.
2. O’zbek notiqlik san’ati tarixini o’rganish.
3. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvatnomai sultoniyy” asarini o’qish.
4. Yunonistonda notiqlik san’atining paydo bo’lishi.
5. Afinada notiqlik san’ati taraqqiyoti.
6. Ifodali o’qish san’atining taraqqiy etishida “Avesto”ning ahamiyati.
7. Demosfen notiqlik faoliyatini o’rganishning ahamiyati.
8. Sitseronning “Notiq” va “Notiqlar haqida” asari.
9. Kaykovus “Qobusnoma” asarini o’qib, tahlil qilish.

10. Barmoq vazni xususida. “Devoni-lug‘otit-turk” asaridagi to‘rtliklar sharhi.
11. Alisher Navoiyning “Ayt”, “Sanga” radifli g‘azallarini yodlash
12. “Xamsa” dostonlarida dialoglarning o‘rni. Farhod va Xusrav dialogi.
13. Navoiy asarlaridagi dialoglar ustida ishlash
14. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani mutolaasi.
15. Cho‘lpon she‘rlarini ifodali o‘qish.
16. Urg‘u va uning ifodali o‘qishdagi ahamiyati. Pauza. Pauza turlari. Intonatsiya. Temp va ritm.
17. Lirik asarlarni ifodali va to‘g‘ri o‘qishni o‘rganish.
18. Mashrab, Ogahiy g‘azal va ruboiylarini o‘qish.
19. Usmon Nosiming “Monolog” she‘ri ustida ishlash.
20. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she‘ridagi intonatsiya, urg‘u, pauzalar ustida ishlash.
21. Nasriy asarlar matni ustida ishlash.
22. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridan parcha o‘qish.
23. Hamzaning “Paranji sirlari” dramasi rollarga bo‘lib o‘qish.
24. “Abulfayzxon” tragediyasida fojiviy pafos.
25. “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan” asarida komik-satirik ruh.
26. “Shum bola” asarida qahramon nutqi.
27. Oybekning “Davrim jarohati” poemasini ifodali o‘qish.
28. Shukur Xolmirzayev hikoyalarning ritmik muqoyasasi.
29. Zamonaviy adabiyot o‘qituvchisi – o‘qish san‘ati ustasi.

V. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Rasulov R., Husanov N., Mo‘yidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati. – Toshkent, 2006.
2. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Романичева Е.С., Пранцова Г.В. Современные стратегии чтения: теория и практика: Учебное пособие. – Москва: Форум, 2013. - 368 с. // <http://znanium.com/bookread.php?book=413610>

Qo‘shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2016, 8 dekabr.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2016, 16 dekabr.
6. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 1998.
7. Fitrat. Aruz haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
8. Vohidov E. She‘r dunyosi. – T.: Sharq, 2001.

9. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 tomlik. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 2001.
10. A'zamov A. Aruz. – Toshkent: 2006.
11. Umirov H. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
12. Boboev T, Boboeva Z. Badiiy san'atlar. – Toshkent: 1999.

Internet saytlari

1. <http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3. <http://ziyouz.uz> – O'zbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> –O'zbekiston milliy ta'lim portali
5. <http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi
6. <http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti
7. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi
8. <http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta'lim sayti
9. <http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi
10. <http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti
11. <http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi
12. <http://txt.uz> – Elektron kutubxona